

TOSHKENT SHAXRIDA YULOVCHILAR OKIMLARIGA TRANSPORT XIZMATI KURSATISH HOLATINING TAXLILI

Doktorant JUMABAEV D.M.

Toshkent arxitektura qurilsh universiteti

Annotatsiya: Maqolada Nukus shahrining bugungi kundagi shahar transporti va yo'lovchi transporti faoliyati, shaharda hozirgi kunda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatayotgan yo'lovchi transport turlari, ularning yo'nalish sxemasi, aholini tashishdagi muammolar va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Аннотация: В статье проанализирована деятельность городского транспорта и пассажирского транспорта города Нукус на сегодняшний день, виды пассажирского транспорта, которые в настоящее время обслуживают пассажиров в городе, схема их маршрутов, проблемы перевозок населения и показания к их использованию.

Abstract: The article analyzes the activities of urban transport and passenger transport in the city of Nukus today, the types of passenger transport that currently serve passengers in the city, the scheme of their routes, the problems of public transportation and indications for their use.

Kalit so'zlar: shahar transporti, yo'lovchi transport, transport oqimi, bekatlar, transport infrastrukturasini, transport turlari.

Ключевые слова: городской транспорт, пассажирский транспорт, транспортный поток, остановки, транспортная инфраструктура, виды транспорта.

Keywords: urban transport, passenger transport, traffic flow, stops, transport infrastructure, types of transport.

Kirish. Keyingi yillarda shahar jamoat yo'lovchi transportiga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda. Buning asosiy sababi axolining xarakatchanligi ortishi xisobiga ularning transport xizmatini kursatishga bo'lgan talablari ham kun sayin ortib bormoqda. O'zbekistan Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Maxkamasi tomonidan shahar yo'lovchi transporti tizimini isloh qilish va axoliga dunyo andozalariga mos keladigan transport xizmatini ko'rsatish maqsadida bir qator qarorlar qabul qilindi.

2023 yil 16 fevral kuni O'zbekistan Respublikasi Prezidentining "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 59-sonli qarori qabul qilindi [1].

Ushbu qarorda 2023-2025 yillarda Nukus shahrida jamoat transporti tizimini takomillashtirish bo'yicha yo'l xaritasi 1-jadvalda keltirilgan[1].

1-jadval

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Muddati
1.	Nukus shahrining transport va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish Bosh rejasini ishlab chiqish.	2023 yil fevral 2023 yil aprel-may 2023 yil dekabr
2.	Nukus shahar jamoat transportining yangi yunalishlar tarmog'ini shakllantirish.	2023 yil mart 2023 yil mart
3.	Brutto-shartnomaga o'tadigan avtobus yunalishlari bo'yicha elektron tenderlar o'tkazish.	2023 yil dekabr 2023 yil dekabr 2024 yil aprel
4.	Nukus shahar jamoat transportida tarif tizimini takomillashtirish.	2023 yil sentyabr 2024 yil mart
5.	Jamoat transporti ustuvorligini ta'minlash maqsadida yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish.	2023 — 2025 yillar 2023 yil dekabr 2023 yil mart — noyabr 2023 yil noyabr
6.	Targ'ibot ishlarini tashkil etish.	2023 yil avgust — dekabr 2023 yil avgust — dekabr
7.	Brutto-shartnoma, shu jumladan yunalishning	2023 yil sentyabr

boshlang'ich narxini shakllantirish hamda brutto-shartnoma asosida ishlayotgan tashuvchilar faoliyatini davriy (<i>chorak va yillik</i>) o'rganish va xulosa berish uchun yuqori malakali ekspertlarni jalb qilish.	2023 yil oktyabr 2024 yil iyun — dekabr
---	--

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Bugungi kunda Nukus shahrida yo'lovchilarni tashish avtomobil transport vositalari bilan amalga oshirilmoqda. Avtomobil transporti yer usti transporti turlaridan biri sifatida eng keng tarqalgan transport turi bo'lib, yo'lovchilarni tashishda yetakchi o'rinni egallaydi.

Shahar yo'lovchi transportining asosiy turlaridan biri bo'lgan avtobus transporti eng keng tarqalgan va arzon transport to'ri bo'lib, u kichik shaharlarda yo'lovchi tashishning yagona turi hisoblanadi. Lekin Nukus shahrida bugungi kunda yo'lovchilarni tashishning aksariyat qismi "Damas" rusimli avtomobillarda amalga oshirilmoqda.


Nukus shahrining yo'lovchi tashish yo'nalishlari to'g'risidagi 2019 yil 30-iyun holati bo'yicha ma'lumot 2-jadvalda keltirilgan [2].

2-jadval.

Nukus shahri yo'lovchi tashish yo'nalishlari bo'yicha

		Nukus shaxrida joylashtirilgan yo'nalishlar	avtobus	yo'nalishli taksi	Shulardan Damas avtomobillari
2022					
Yo'nalishlar soni	Faoliyat kursatayotgan yo'nalishlar soni	95	4	91	87
	Vaqtincha faoliyat kursatmayotgan yo'nalishlar soni	37	26	11	10
Avtomobillar soni	Barcha yo'nalishlarda rejalashtirilgan avtomobillar soni	1694	143	1551	1473
	Faoliyat kursatayotgan yo'nalishlarda amaldagi avtomobillar soni	1311	16	1295	1230

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasining avtomobil transportida shaharda 2021 yilda avtomobil transportining barcha turlari bo'yicha yo'lovchi aylanmasi 1195,7 mln. yo'lovchi/km ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 126,0 % ko'rsatkich qayd qilindi. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ulushi 30,0 % ni tashkil qildi (3-rasm) [3].



3-rasm. Avtomobil transporti yuk va yo'lovchi aylanmasining taqqoslanishi [3].

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Nukus shahrining yo'lovchi tashish transport kompleksidagi mavjud muammolar :

- Boshqa turdagi yo'lovchi tashish transportning yo'qligi, faqat avtotransport vositalari.
- Reja bo'yicha avtotransport vositalarining yetishmasligi.
- Bekatlar zamonaviy jihozlanmaganligi va yangi yo'nalishlarda bekatlarning kamligi.

Nukus shahrida boshqa yo'lovchi transport turlarining yo'qligi, yo'lovchilarni tashish faqat avtotransport vositalarida amalga oshirilyotgani va bu avtotransportlarning aksaryat qismi "Damas" rusimli avtomobillar bo'lganligi sababli, shaharning asosiy ko'chalarida "pik" vaqtlari tirbandliklar va yo'l transport hodisalari ro'y bermoqda.

Nukus shahri ko'cha-yo'l tarmog'idagi bekatlarning aksaryat qismi zamonaviy jihozlanmaganligi va yangi mahallalarga yangi qo'yilgan yo'nalishlarda bekatlar kamshiligi sababli shaharda harakatlanayotgan yo'nalishli taksilarning yo'lovchilarni hoxlagan joylarida tushirishi va chiqarishlari oqibatida yo'llarda boshqa avtotransport vositalariga noqulayliklarni yaratishga va har hil hodisalarning yuzaga kelishlariga vaziyat yaratilmoqda.

Hozirgi kunda Nukus shahrida avtobus yo'nalishlari 54 ta va yo'nalishli taksi yo'nalishlari 104 ta bo'lib, u shaharga samarali xizmat ko'rsata olmayapti. Negaki bugungi kunda shahar aholisining tez suratlarda o'sishi sababli chetki mahallalarga boruvchi yo'nalishlar yuklanganlik darajasi oshmoqda. Shahar bosh planining o'zgarishi esa ayrim hududlarni bog'lovchi yo'nalishlarni tashkillashtirishga sabab bo'lmoqda.

Takliflar (Recommendations)

Yuqorida ko'rib chiqilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida qo'yidagi takliflar tavsiya etiladi:

- Shaharga yangi yo'lovchi transport turini loyihalash, jumladan trolleybus, bu yo'lovchi transport turi Nukus shahriga begona hisoblanmaydi.
- Bekatlarni zamonaviy jihozlash va bekatlarda shu bekatdan o'tadigan yo'nalishlarning sxemasini va avtotransport turkimini hamda kelish vaqtini ko'rsatuvchi jadvallar bilan ta'minlash.
- Shaharda avtovokzallarini bog'lovchi yo'nalishlarni loyihalash [5].

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-59-son "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Transport vazirligi 2022-yil yanvar oyi holatiga bo'lgan ma'lumoti.
3. Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi 2022-yil yanvar oyi holatiga bo'lgan ma'lumoti.
4. Международный семинар "Устойчивое развитие городских транспортных систем: вызовы и возможности" Москва 2012г.
5. А.В. Коссов и др. Транспортная планировка городов. Москва 2017г.
6. Muminov N. S. et al. RESEARCH OF TRANSPORT ECOLOGICAL SYSTEM OF TASHKENT CITY INFRASTRUCTURE: PROBLEMS, REQUIREMENTS AND SOLUTIONS //British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. – 2022. – T. 11. – C. 112-125.
7. <https://google.ru>.